

## **O‘ZBEKISTONDA TURLI OMILLAR TA’SIRI OSTIDA BANDLIK MUAMMOLARINING KESKINLASHUVI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA MEHNAT BOZORINING OLDIDA TURGAN VAZIFALAR**

*Muhammadiyev Shohboz Bo‘ron o‘g‘li*

*Osiyo xalqaro universiteti magstranti*

[shmuhammadiyev1994@gmail.com](mailto:shmuhammadiyev1994@gmail.com)

**Annotatsiya** :Maqolada O‘zbekistonda turli omillar ta’siri ostida bandlik muammolarining keskinlashuvi va ularni bartaraf etishda mehnat bozorining oldida turgan vazifalar ya’ni raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori sohasining rivojlanishi va unda band aholi soniga ta’sir ko‘rsatuvchi ish haqi, mehnat unumdorligi, investitsiya, aholining pul daromadlari, oshirish hamda mehnat bozorida talab va taklif o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash imkoniyatlari asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** bozor bandlik, mehnat bozori ish kuchi, faol aholi islohatlar, dasturlar, kichik biznes.

Ish kuchi harakati (migratsiyasi) bo‘yicha ichki mehnat bozori mehnat resurslarining bir mamlakat miqyosida, mintaqalar, tuman va shaharlar o‘rtasida qayta taqsimlanishini nazarda tutadi. Tashqi ish kuchi harakati deyilganda mehnat resurslarining bir davlatdan boshqa davlatga ko‘chib o‘tishi tushuniladi. Mehnat bozori ish kuchini taklif etayotgan turli toifalarning segmentlarini mujassamlashtirgan bo‘ladi. Bu segmentlarning har birida o‘zaro raqobatlashadigan, ammo mehnat bozorining ish kuchi boshqa toifalari segmentlaridagi ish kuchiga raqobatchi bo‘lmaydigan xodimlar jamlangan. Bu segmentlar birlamchi va ikkilamchi mehnat bozorlaridan iboratdir. Birlamchi mehnat bozorlari nufuzli ish turlaridan shakllanadi. Ulardagi mustaqil ish joylari oliy ma’lumotga ega xodimlar, ma’muriy–boshqaruv personali, yuqori malakali

mutaxassislar, yordamchi ish joylari esa o'рта malakali va texnik xodimlar tomonidan egallanadi.

### 1.1.1-jadval

#### **Birlamchi va ikkilamchi mehnat bozorlarining asosiy xususiyatlari**

<b>Asosiy xususiyatlar</b>	<b>Birlamchi mehnat bozori</b>	<b>Ikkilamchi mehnat bozori</b>
Mehnatga haq to'lash darajasi	Yuqori	Past
Ish haqi shakllari xususiyatlari	Bir yo'la to'lovlar ulushining yuqoriligi, mehnatga haq to'lashning shaxsiy shakli	Asosiy ish haqining asosiy rol o'ynashi, mehnatga jamoaviy haq to'lash
Mehnat faoliyati mazmuni	Ijodiy, yuqori malakali	Ijro etuvchi, zerikarli ish
Mehnat sharoitlari	Qulay	Qoniqarsiz
Pirovard natijalar uchun ma'suliyat	Yuqori	Past
Ish bilan bandlik xususiyati	Baqaror	Uzlukli
Ish vaqtining xususiyatlari	Normal yoki naormalangan ish kuni, haftasi, yili	To'liq bo'lmagan ish kuni, haftasi, mavsumiy va vaqtincha ish
Mehnat kontraktlarining davomiyligi	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli
Alohida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ulushi	Past	Yuqori
Ijtimoiy himoyalanganlik darajasi	Yuqori	Past
Ta'lim va kasb tayyorgarligi uchun ajratiladigan mablag'lar	Katta	Kam
Xizmat vazifasida ko'tarilish imkoniyati	Katta	Kam
Ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etish darajasi	Yuqori	Kam

Ikkilamchi mehnat bozorlari yuqori malaka va maxsus tayyorgarlik talab etilmaydigan ish joylaridan iborat bo'ladi. Bu ish joylari malakali ishchilar, xizmat ko'rsatadigan va quyi kategoriyali xodimlarga mo'ljallangandir (1.1-jadval).

Ko'rinib turibdiki, birlamchi mehnat bozorida mehnatga haq to'lash darajasi, ish tartibi, mehnat sharoitlari, ish bilan barqaror ta'minlanish, ijtimoiy himoyalanish, pirovard natija uchun ma'suliyat, xizmat vazifasida ko'tarilish, ishlab chiqarishni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlari ikkilamchi mehnat bozoridagiga qaraganda sifat jihatidan yuqori darajadadir. Mehnat bozorining samarali amal etishi uni davlat

tomonidan tartibga solinishi darajasiga bog'liqdir. Davlat o'zining mehnat bozorida siyosati asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

**1. Milliy mehnat bozorida bu quyidagilarni ko'zda tutadi:**

➤ iqtisodiyot real sektorini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlash va tartibga solishga yo'naltirilgan soliqqa tortishning eng maqbul darajasini o'rnatish;

➤ kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: ish o'rinlari sonini ko'paytirish maqsadida kreditlar ajratish, soliq imtiyozlari berish, ya'ni mehnat xizmatiga talabni rag'batlantirish;

➤ ish kuchi harakatchanligini ta'minlash, xususan oilalarni ish kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalardan ish kuchi yetarlicha bo'lmagan mintaqalarga ko'chib o'tishlari uchun subsidiyalar berish va kreditlar ajratish yo'li bilan ta'minlash;

➤ mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

➤ ishchilar umumiy ta'lim darajasini oshirish, ularni mehnat bozorida barqaror talabga ega kasblarga o'qitish va qaytadan o'qitish.

**2. Mintaqa mehnat bozorida quyidagilar ko'zda tutiladi:**

➤ har bir ishga muhtoj fuqaroga kasblar, tarmoqlar va mamlakat mintaqalari bo'yicha bo'sh ish joylari to'g'risida ma'lumotlar bankini yaratish va to'liq ma'lumotlarni taqdim etish;

➤ mintaqaviy ish bilan bandlikni faollashtirish yo'llarini izlash maqsadida asosan yollanma xodimlarning himoyasiz guruhlari uchun ijtimoiy choralarni ko'zda tutish;

➤ mintaqa iqtisodiyoti tarkibini hisobga olgan holda, kichik korxonalar, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini boshlayotganlarga imtiyozlar berish;

➤ ishga joylashtirish xizmatlarini tashkil etish;

➤ mintaqa iqtisodiyotidagi tarkibiy-texnologik o'zgarishlarni tahlil etish;

- mintaqa iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda inson kapitaliga mablag‘ sarf qilishni tartibga solish;
- mehnat bozori statistikasi va marketing tadqiqotlarini tahlil etish, ular asosida aholi uchun eng qulay yo‘nalishlarda tegishli shart-sharoitlar yaratish.

### **3. Mahalliy (ichki firma) darajasida quyidagilar ko‘zda tutiladi:**

- korxonada moliyaviy ahvolidan qat’iy nazar bir xil mehnatga bir xil ish haqi to‘lash kafolati;
- ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o‘rtasidagi shartnomaviy mehnat munosabatlarini tartibga solish;
- mehnatga haq to‘lash yagona ta’riflarni yaratish va hokozolar.
- Davlat tomonidan ish bilan bandlikni tartibga solish mehnat bozorini tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – mehnat bozorida ish kuchiga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirish va ish kuchi samarali taklifini qo‘llab-quvvatlashni dastaklashdan iboratdir. Ya’ni:
  - iqtisodiy o‘rta imkoniyatlarini kengaytirish uchun mehnat resurslari salohiyatini shakllantirish va ularni iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga muvofiqlashtirish;
  - aholi turli guruhlarining ish bilan bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni kamaytirish orqali ijtimoiy tanglikni yumshatish;
  - ish bilan bandlikni barqarorlashtirish, ish kuchiga talabni butun choralar bilan oshirish<sup>1</sup>.

Mehnat bozorining eng muhim ijtimoiy fuksiyasi aholining ish bilan bandligiga ko‘maklashishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani huquqiga egadir”<sup>2</sup>, deb belgilab qo‘yilgan. Professor I.I. Yelischeva ish bilan bandlikning bu turlari bilan birga ikkilamchi bandlikni ham ko‘rsatadi. Uning fikricha, bu mehnat

---

<sup>1</sup> Давлатнинг макроекономик сисъати :ўқув кўланма. –Т.: Академия, 2007. Б.150.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон , 2008. - Б. 9.

faoliyatiga jalb etilgan ish kuchidan qo‘shimcha (ikkilamchi) foydalanishdir<sup>3</sup>. Ish bilan ikkilamchi bandlik amalda o‘rindoshlik bo‘lib, xodimning qo‘shimcha daromadga ega bo‘lish uchun o‘z ish kuchini asosiy ish vaqtdan bo‘sh vaqtda taklif etishini anglatadi. Aholining ish bilan to‘la bandligini ta’minlash xalqaro hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ish bilan bandlik sohasidagi siyosatga taalluqli 122-konvensiyasida mazkur hujjatni ratifikatsiya qilgan mamlakatlar zimmasiga to‘la, samarali va erkin tanlangan ish bilan bandlik siyosatini olib borish ma’suliyati yuklangan. Mazkur konvensiyada ish bilan to‘la bandlik mehnat qilishga qodir bo‘lgan ish joyini egallashni hohlaydigan va faol ish qidiradigan hamma uchun bandlik sifatida belgilab qo‘yilgan<sup>4</sup>. Mehnat bozorlari eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham mukammal amal etadi deb taksdiqlash qiyin. Aksariyat hollarda mehnat bozorlarida ish kuchi taklifi unga talabga doimo mutanosib bo‘lmaydi. Miqdor mutanosibliklaridan tashqari tarkibiy nomuvofiqliklar (jo‘g‘rofiy, kasb-malaka, tarmoq va hokazolar) ham mavjud. Ayni paytda mehnat bozoriga kirib kelayotgan mehnat resurslari oqimining undan chiqib ketayotganlar oqimiga mos tushmasligini ham ta’kidlash joiz. Bu nomutanosibliklar mehnat bozori tartibga solinishga muhtojligini ko‘rsatadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Abdullayev Y.A. Bozor iqtisodiyoti asoslari. –Toshkent: Mehnat, 1997. -428b.
2. Abduraxmonov K.X.Mehnat iqtisodiyoti . –Toshkent: Mehnat,2004.-97 b.
3. Abduraxmonov K.X., Abdullayev A.M, Dadaboyev Sh.X. Regionalnaya ekonomika i upravleniye. –T.: Fan va texnologiya, 2007. -53 b.
4. Abduraxmonov K.X., V.Imomov. O‘zbekistonda mehnat potensialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. –T.: Akademiya, 2008. -78 b.
5. Shavkat o‘g‘li N. X. YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI //PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL. – 2022. – №. 3 (18).

---

3 Статистика: Учебник //Под.ред.проф.Елисеевой И.И.-М.: ООО “ВИТРЭМ”, 2002. -С. 300-302.

4 Халқаро Меҳнат Ташкилотининг асосий конвенциялари ва тавсиялари. –Т.: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси миллий маркази, 2008. Б.11

6. Shavkat o'g'li N. X. THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 22. – С. 229-231.

7. Shavkat o'g'li N. X. AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI //QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – С. 1285-1287.

8. Shavkat o'g'li N. X. YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI //Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 105-110.

9. Shavkat o'g'li N. X. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 4-9.

10. Nomozov X. INTERNET-MAKON MONIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 3. – С. 67-67.

11. Номозов Х. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ //Философия и право. – 2023. – Т. 26. – №. 3. – С. 232-235.

12. Nomozov X. INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI //Development and innovations in science. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 8-14